

MAQOM IJROCHILIGIDA OG‘ZAKI AN‘ANA VA NOTALASHTIRISH MUAMMOSI: USTOZ–SHOGIRD TIZIMI VA AKADEMIK MODEL



Salihova Muhabbat Jabbarovna

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti
 “Maqom xonandaligi” kafedrasida dotsenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20019712>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maqom ijrochiligida og‘zaki an‘ana va notalashtirish jarayoni o‘rtasidagi metodologik va estetik tafovutlar tahlil qilinadi. Ustoz–shogird tizimi va akademik ta‘lim modeli qiyosiy asosda o‘rganilib, ularning ijro amaliyotiga, intonatsion xususiyatlarga hamda badihaviylik darajasiga ta‘siri aniqlanadi. Tadqiqot natijalari og‘zaki an‘ana maqomning mikrointonatsion va individual talqin jihatlarini saqlashda muhim omil ekanini, notalashtirish esa repertuarni tizimlashtirish va saqlash vazifasini bajarishini ko‘rsatadi. Maqola yakunida maqom ijrochiligini rivojlantirish uchun integrativ o‘qitish modelini ishlab chiqish zarurati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: maqom ijrochiligi, og‘zaki an‘ana, notalashtirish, ustoz–shogird tizimi, akademik model, badihaviylik, intonatsiya, Shashmaqom.

Аннотация: В данной статье анализируются методологические и эстетические различия между устной традицией и процессом нотирования в исполнении макомов. Система "наставник-ученик" и модель академического образования изучаются на сравнительной основе, и определяется их влияние на исполнительскую практику, интонационные особенности и уровень импровизации. Результаты исследования показывают, что устная традиция является важным фактором сохранения микроинтонационных и индивидуальных аспектов интерпретации макома, а нотация выполняет функцию систематизации и сохранения репертуара. В заключение статьи обосновывается необходимость разработки модели интегративного обучения для развития исполнительства макома.

Ключевые слова: исполнительство макома, устная традиция, нотирование, система «устоз-шогирд», академическая модель, импровизация, интонация, Шашмаком.

Abstract: This article examines the methodological and aesthetic differences between oral tradition and musical notation in maqom performance practice. The ustoz–shogird (master–apprentice) system and the academic model of instruction are comparatively analyzed to determine their impact on performance practice, intonational features, and improvisational elements. The findings demonstrate that oral transmission plays a crucial role in preserving microtonal nuances and individual interpretative characteristics, while notation contributes to the systematization and preservation of the repertoire. The study substantiates the necessity of developing an integrative pedagogical model for maqom performance.

Keywords: maqom performance, oral tradition, musical notation, master–apprentice system, academic model, improvisation, intonation, Shashmaqom.

O'zbek professional an'anaviy musiqasi tizimida maqom san'ati markaziy o'rin tutadi. Xususan, Shashmaqom asrlar davomida shakllangan murakkab janr sifatida nafaqat musiqiy-estetik hodisa, balki o'ziga xos ijro maktabi va bilim uzatish tizimini ham namoyon etadi. Maqom ijrochiligining tarixiy taraqqiyoti og'zaki an'ana asosida kechgan bo'lib, bunda ustoz–shogird munosabatlari asosiy metodik mexanizm vazifasini bajargan.

Og'zaki uzatish tizimi doirasida maqom nafaqat kuy va ashula matni sifatida, balki talqin, intonatsion noziklik, badihaviy element va ijro ruhiyati bilan birgalikda shakllangan kompleks san'at hodisasi sifatida mavjud bo'lgan. Mazkur tizimda ijrochilik bilimlari yozma manbalardan ko'ra amaliy tajriba, takroriy tinglash va bevosita ustoz namunasi o'zlashtirish orqali avloddan avlodga o'tgan. Shu o'rinda R.Abdullayevning an'anaviy ijrochilik xususidagi fikrlaridan parcha keltirib o'tamiz: "Ushbu musiqa boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi:

1. Og'zaki tarzlilik — mumtoz musiqa xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan ijod mahsulidir"[1,9-bet].

XX asrning birinchi yarmidan boshlab maqom namunalarini notaga tushirish va ularni akademik ta'lim tizimiga integratsiya qilish jarayoni boshlandi. Mazkur jarayonni musiqashunos olim I.Rajabov quyidagicha tariflaydi:

"Bu ishga birinchi bo'lib prof. V. L. Uspenskiy kirishdi va u notaga olgan Shashmaqom nashr etildi. Maqomlarni o'rganish ishida yu dastlabki qadam bo'lib, Shashmaqom kitobini nashr etilishi muzika madaniyatida muhim hodisa bo'ldi"[2,5-bet]. Bu borada Yunus Rajabiy tomonidan amalga oshirilgan tizimlashtirish ishlari muhim bosqich hisoblanadi. Maqom repertuarining yozma shaklga keltirilishi uning saqlanishi va keng ommaga yetkazilishida muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, mazkur jarayon ijrochilikning tabiiy og'zaki mexanizmlariga muayyan ta'sir ko'rsatdi.

Notalashtirish jarayoni maqomning intonatsion tabiatini g'arb musiqiy yozuv tizimiga moslashtirishni talab etdi. Bunda mikrointerval xususiyatlar, pardalarning harakatchanligi va talqinning individual jihatlari to'liq aks etmasligi muammosi yuzaga keldi. Natijada maqom ijrochiligida ikki xil yondashuv — og'zaki–an'anaviy model va yozma–akademik model — o'rtasida metodologik hamda estetik tafovut shakllandi.

Bugungi kunda mazkur tafovut faqat metodik masala emas, balki ijro sifatiga, talqin erkinligiga va maqomning ruhiy-estetik mazmuniga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bir tomondan, akademik ta'lim tizimi maqomni tizimlashtirish, nazariy asoslash va keng miqyosda o'qitish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, og'zaki an'ananing zaiflashuvi individual maktablar farqining kamayishiga, badihago'ylik unsurlarining qisqarishiga hamda ijro standartlashuviga olib kelishi mumkin.

Shu munosabat bilan maqom ijrochiligida og'zaki an'ana va notalashtirish jarayoni o'rtasidagi o'zaro munosabatni ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ustoz–shogird tizimi va akademik modelning qiyosiy o'rganilishi maqom san'atining kelgusi rivoj yo'nalishlarini belgilashda muhim nazariy asos bo'la oladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — maqom ijrochiligida og'zaki uzatish tizimi va yozma-nota asosidagi ta'lim modeli o'rtasidagi ziddiyat va uyg'unlik jihatlari aniqlash, ularning ijro amaliyotiga ta'sirini tahlil qilish hamda integrativ yondashuv zaruratini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- *og'zaki an'ananing metodik va estetik xususiyatlarini aniqlash;*
- *maqomni notalashtirish jarayonining tarixiy va nazariy asoslarini tahlil qilish;*

- *akademik ta'lim tizimining maqom ijrochiligiga ta'sirini baholash;*
- *ustoz–shogird modeli va akademik model o'rtasidagi asosiy tafovutlarni qiyosiy tahlil qilish.*

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, maqom ijrochiligi ikki qarama-qarshi tizim doirasida emas, balki ularning o'zaro ta'siri va integratsiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Bu yondashuv maqomni nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ijro amaliyotida faol rivojlanayotgan tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Maqom san'ati va uning ijrochilik xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar XX asr boshlaridan boshlab shakllana boshladi. Ushbu yo'nalishda dastlabki fundamental izlanishlar maqomning nazariy tizimini aniqlash, janr tuzilishini tasniflash hamda repertuarni saqlashga qaratilgan edi.

Maqomni tizimlashtirish va yozma shaklga keltirish borasida Yunus Rajabiyning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Uning maqom namunalarini notaga tushirish va nashr ettirish ishlari milliy musiqa merosini saqlash va akademik ta'lim tizimiga joriy etishda muhim bosqich bo'ldi. Biroq ushbu tadqiqotlar asosan repertuarni qayd etish va tizimlashtirishga qaratilgan bo'lib, og'zaki an'ananing ijrochilik jarayonidagi nozik jihatlari yetarlicha tahlil qilinmagan.

Maqomning tarixiy-nazariy asoslarini o'rganishda Abdurauf Fitratning qarashlari muhim o'rin tutadi. Uning o'zbek klassik musiqasi haqidagi fikrlari maqomni milliy estetik tafakkur mahsuli sifatida baholashga xizmat qiladi. Fitrat maqomni faqat musiqiy shakl emas, balki madaniy hodisa sifatida ko'radi, ammo ijrochilik metodologiyasi masalasi alohida tadqiq etilmaydi.

Shuningdek, maqom ijrochiligi va ustoz–shogird an'anasi masalalari bo'yicha bir qator musiqashunos olimlar tomonidan tarixiy va tavsifiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularning ishlarida og'zaki uzatish tizimi maqomning saqlanish mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Biroq aksariyat tadqiqotlar mazkur tizimni ideal model sifatida tavsiflaydi, uning akademik ta'lim bilan to'qnashuvi yoki o'zaro ta'siri chuqur tahlil qilinmaydi.

Etnomusiqashunoslik doirasida og'zaki an'ana va yozma notatsiya o'rtasidagi munosabat masalasi xalqaro miqyosda ham muhokama qilingan. Xususan, Bruno Netti¹ og'zaki musiqa madaniyatlarida notalashtirishning chegaralangan imkoniyatlari haqida fikr yuritadi. Uning ta'kidlashicha, yozma tizim musiqaning strukturaviy jihatlarini qayd etishi mumkin, biroq ijro jarayonidagi kontekstual va improvizatsion unsurlarni to'liq ifodalay olmaydi[3,17-bet]. Ushbu nazariy yondashuv maqom ijrochiligi tahlilida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo maqom an'analari, jumladan Shashmaqom bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda janrning tarkibiy tuzilishi, maqom bo'limlari va lad xususiyatlari keng yoritilgan. Biroq ijrochilikning ichki mexanizmlari — intonatsion harakatchanlik, talqin erkinligi, individual maktab farqlari — ko'proq amaliy tajriba doirasida qolib ketgan.

So'nggi yillarda maqom san'atining nomoddiy madaniy meros sifatida e'tirof etilishi (jumladan, UNESCO ro'yxatiga kiritilishi) uning saqlanish va o'qitish metodologiyasiga yangicha yondashuv zaruratini kuchaytirdi. Bu esa og'zaki an'ana va akademik model o'rtasidagi muvozanat masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, maqomni notalashtirish, uning tarixiy taraqqiyoti va nazariy asoslari keng o'rganilgan bo'lsa-da, og'zaki an'ana va akademik ta'lim tizimining qiyosiy metodologik tahlili yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, mazkur ikki

¹ Bruno Netti -Chexiyalik etnomusiqashunos olim(1930-2020)

modelning ijro amaliyotiga, talqin sifatiga va badihaviy elementlarga ta'siri masalasi kompleks tadqiqotni talab qiladi.

Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, maqom ijrochiligini og'zaki va yozma bilim uzatish tizimlarining o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.

Mazkur tadqiqot maqom ijrochiligida og'zaki an'ana va notalashtirish tizimining o'zaro munosabatini aniqlash hamda ustoz–shogird modeli va akademik ta'lim tizimi o'rtasidagi metodologik tafovutlarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borilib, tarixiy, qiyosiy, usullar uyg'unligidan foydalanildi. Tarixiy-musiqiy tahlil usuli Tadqiqotning dastlabki bosqichida maqom ijrochiligining shakllanish jarayoni, og'zaki an'ananing tarixiy ildizlari hamda notalashtirish jarayonining paydo bo'lishi tarixiy manbalar asosida o'rganildi. Xususan, Shashmaqomning rivojlanish bosqichlari va XX asrda amalga oshirilgan tizimlashtirish jarayonlari tahlil qilindi. Bu usul maqomning bilim uzatish mexanizmlaridagi transformatsiyani aniqlash imkonini berdi. Og'zaki–an'anaviy model va yozma–akademik modelning metodik tamoyillari qiyosiy tahlil qilindi. Maqom ijrochiligida mikrointonatsion xususiyatlarning saqlanish darajasini aniqlash maqsadida audioyozuvlar asosida analitik tahlil amalga oshirildi. Og'zaki an'ana vakillari ijrosi hamda nota asosida o'qigan talabalarning ijro namunalari solishtirildi. Intonatsion harakatchanlik, pardalarning o'zgaruvchanligi va bezak elementlarining qo'llanishi tahlil mezoni sifatida tanlandi. Mazkur bosqich maqom ijrochiligida notalashtirish jarayonining amaliy ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida ustoz–shogird tizimida ta'lim berayotgan ijrochilar hamda akademik muassasalarda faoliyat yuritayotgan pedagoglar bilan suhbatlar o'tkazildi.

Suhbat jarayonida quyidagi savollar asosiy yo'nalish sifatida belgilandi:

- *og'zaki o'qitishning ustun jihatlari;*
- *nota asosida o'qitishning qulayliklari va cheklovlari;*
- *improvizatsiya imkoniyatining o'zgarishi;*
- *ijro ruhiyati va sahna talqiniga ta'sir.*

Kuzatuv usuli esa amaliy dars jarayonlarini tahlil qilish orqali ikki model o'rtasidagi metodik farqlarni aniqlashga yordam berdi. Olingan natijalar musiqashunoslik va etnomusiqashunoslik nazariyalari bilan solishtirildi. Xususan, og'zaki musiqa madaniyatlarida notatsiyaning chegaralari haqidagi konseptual qarashlar bilan bog'liq nazariy yondashuvlar asosida maqom ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlari umumlashtirildi. Maqom ijrochiligi tirik ijodiy jarayon sifatida talqin qilinib, uni faqat yozma manba orqali emas, balki amaliy ijro kontekstida o'rganish zaruriyati metodologik tamoyil sifatida belgilandi.

Tadqiqot natijalari maqom ijrochiligida og'zaki an'ana va notalashtirish asosidagi akademik model o'rtasidagi tafovut metodik emas, balki estetik va ijroviy xarakterga ega ekanini ko'rsatdi. Og'zaki an'ana asosida shakllangan ijro namunalari intonatsion harakatchanlik va pardalarning elastikligi bilan ajralib turadi. Milliy an'analarni asrashda va yosh avlodga yetkazishda yetuk sozanda, xonanda va bastakorlarning ijrochilik, ustozlik va ijodkorlik faoliyatlari milliy musiqamizni rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi[4,1-bet]. Mikrointerval og'ishlar, ayniqsa lad markaziga yaqin joylarda, dinamik va kontekstual xarakterga ega bo'lib, ular qat'iy balandlik emas, balki jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Aksincha, nota asosida o'qitilgan ijrochilar ijrosida tovush balandligi nisbatan barqaror va standartlashtirilgan ko'rinishda kuzatildi. Bu holat maqomning tabiiy intonatsion rang-barangligining ma'lum darajada soddalashuviga olib kelishi mumkin.

Og‘zaki an‘ana doirasida improvizatsiya (badihago‘ylik) ijroning ajralmas qismi sifatida saqlanadi. Ustoz tomonidan berilgan asosiy model individual talqin bilan boyitiladi. Akademik modelda esa asar ko‘proq “berilgan matn” sifatida talqin qilinadi, natijada ijro interpretatsiyasi chegaralanishi mumkin. Bu jarayon ayniqsa Shashmaqom bo‘limlari ijrosida yaqqol namoyon bo‘ladi: og‘zaki maktab vakillari ijrosida frazalash va bezaklar individual uslubni ifodalasa, akademik muhitda bir xil talqin namunalarning takrorlanishi kuzatiladi.

Ustoz–shogird tizimi individual yondashuv, tinglash madaniyati va takroriy amaliy mashq asosida quriladi. Bu modelda bilim uzatish jarayoni bevosita ijro kontekstida amalga oshadi. Akademik tizim esa nazariy tushuntirish va nota matniga tayanadi, bu esa jarayonni tizimli va ommaviy shaklga keltiradi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, akademik model maqom repertuarini saqlash va keng auditoriyaga yetkazishda samarali bo‘lsa-da, og‘zaki an‘ananing ijroviy nozikliklarini to‘liq qamrab olmaydi. Maqom san‘ati tarixan tirik ijodiy jarayon sifatida shakllangan. Notalashtirish esa uni ma‘lum ma‘noda “fiksatsiya” qiladi. Bu esa maqomning o‘zgaruvchan va kontekstual tabiati bilan ma‘lum ziddiyat hosil qiladi.

O‘tkazilgan tadqiqot maqom ijrochiligida og‘zaki an‘ana va notalashtirish asosidagi akademik model o‘rtasidagi tafovut chuqur metodologik va estetik xarakterga ega ekanini ko‘rsatdi. Maqom san‘ati tarixan ustoz–shogird tizimi doirasida shakllangan bo‘lib, bunda bilim uzatish jarayoni amaliy ijro, eshitish, takrorlash va individual talqin orqali amalga oshirilgan. Ushbu model maqomning intonatsion nozikliklari, badihaviy tabiati hamda individual maktab xususiyatlarini saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynagan.

XX asrda maqom namunalari notaga tushirish va ularni akademik ta‘lim tizimiga joriy etish jarayoni maqomni saqlash va tizimlashtirish nuqtai nazaridan muhim bosqich bo‘ldi. Xususan, Shashmaqomning yozma shaklga keltirilishi uning repertuar sifatida barqarorlashuviga xizmat qildi. Biroq notalashtirish jarayoni maqomning mikrointonatsion va improvizatsion xususiyatlarini to‘liq aks ettira olmasligi sababli, ijro amaliyotida ma‘lum darajadagi standartlashuv yuzaga kelgan.

Hozirda yurtimizda milliy musiqaga va ayniqsa maqom san‘atiga bo‘lgan e‘tibor ushbu an‘analarni kelajak avlodga yetib borishida ulkan natijalar berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi[5,9-bet].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, og‘zaki an‘ana va akademik modelni qarama-qarshi qo‘yish ilmiy jihatdan to‘liq asosli emas. Aksincha, mazkur ikki tizimning funksional vazifalari turlicha: yozma model — saqlash va tizimlashtirish vositasi, og‘zaki model esa ijroning estetik va ijodiy mohiyatini ta‘minlovchi mexanizmdir. Maqom san‘atining barqaror rivoji aynan shu ikki yondashuvning muvozanatli integratsiyasiga bog‘liq.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Integrativ o‘qitish modeli ishlab chiqilishi zarur. Bunda nota tayanch material sifatida qo‘llanilib, ijro jarayonida og‘zaki talqin va improvizatsiya elementlari majburiy komponent sifatida saqlanishi lozim.

2. Akademik ta‘lim muassasalarida maqom ijrochiligini o‘qitishda ustoz–shogird amaliyoti elementlarini kuchaytirish, individual mashg‘ulotlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq.

3. Mikrointonatsion xususiyatlarni saqlash maqsadida audio va video arxivlar asosida maxsus fonotekalar yaratish hamda ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

4. Maqom ijrochiligini baholash mezonlari qayta ko‘rib chiqilib, faqat nota aniqligi emas, balki intonatsion noziklik, frazalash, badihaviylik va estetik talqin darajasi ham baholash mezoniga kiritilishi lozim.

5. Ilmiy tadqiqotlarda maqomni faqat nazariy tizim sifatida emas, balki tirik ijro jarayoni sifatida o'rganishga ustuvor ahamiyat berilishi zarur.

Umuman olganda, maqom san'ati muzeylashtirilishi emas, balki ijodiy rivojlantirilishi kerak. Uning kelajagi og'zaki an'ananing ruhiy-estetik tajribasini saqlagan holda zamonaviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirishga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.S.Abdullayev. "O'zbek mumtoz musiqasi" Madaniyat, son'at kollejlari va akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma; Toshkent - Yangi nashr - 2008
2. I.Rajabov. "Maqomlar masalasiga doir" Toshkent-1963y.
3. B.Netti. "Etnomusikologiyani o'rganish: *o'ttiz bitta masala va tushunchalar*" Champaign: Illinoys universiteti matbuoti. 2005.
4. M.Salihova. "Mahmudjon Tojiboyev bastalagan turkum asarlarga bir nazar" //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 4.
5. Zufarov, A. Maqomlar asosida bastalangan asarlar: Saidjon Kalonovning "Topmadim" asari misolida. *Oriental Art and Culture*, 4(5), 331-339. (2023).